

ESTETIK ZAVQ VA MA'NAVIY MOHIYAT UYG'UNLIGI

O'tkirbek Muhammad Sobir
Andijon pedagogika va iqtisodiyot
universiteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18383164>

Annotatsiya: Maqolada arbain mavzusidagi she'riyat estetik uyg'unlik va ma'naviy-axloqiy birlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Unda shoirlarning mahorati, fikr va his-tuyg'u uyg'unligi, tarkib va ifoda hamohangligi o'rganiladi. Ayrim asarlarda estetik lazzat bilan ma'naviy chuqurlikning uyg'unlashib, g'oya va badiiy ifodaning bir butun holda namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda qalb bilan nafs o'rtasidagi ichki kurash, ma'naviy kamolot jarayonlari, ushbu holatlarni ifodalashda dramatik va allegorik vositalardan foydalanish masalalari ham muhokama etiladi. Ishda arbain she'riyatini badiiy-estetik mezonlar asosida tahlil qilishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Arbain she'riyati, badiiy-estetik uyg'unlik, ma'naviy-axloqiy integratsiya, she'riyatda obraz va metafora, fikr va his-tuyg'u uyg'unligi, dramatik ta'sir.

ГАРМОНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВКУСА И ДУХОВНОГО НАЧАЛА

Уткирбек Мухаммад Сабир
Старший преподаватель
Андижанский педагогический и
экономический университет

Аннотация: Статья анализирует поэзию на тему арбаин с точки зрения эстетической гармонии и духовно-нравственного единства. Рассматриваются мастерство поэтов, согласованность мысли и чувства, гармония композиции и выразительных средств. Особое внимание уделено тому, как в некоторых произведениях эстетическое удовольствие сочетается с глубиной духовного содержания, создавая примеры интеграции идеи и художественного выражения. Также обсуждается изображение внутренней борьбы сердца и «эго», процессы духовного роста и драматические, аллегорические средства, используемые для передачи этих состояний. Работа демонстрирует необходимость анализа поэзии арбаин позиции художественно-эстетических критериев.

Ключевые слова: Поэзия арбаин, художественно-эстетическая гармония, духовно-нравственная интеграция, образ и метафора в поэзии, согласованность мысли и чувства, драматический эффект.

HARMONY OF AESTHETIC TASTE AND SPIRITUAL ESSENCE

Otkirbek Muhammad Sobir
Senior Lecturer at Andijan University of
Pedagogy and Economics

Annotatsiya: The article examines arbain-themed poetry from the perspective of aesthetic harmony and spiritual-ethical unity. It explores poets' mastery, the coherence of thought and emotion, and the harmony of composition and expression. Particular attention is given to how some works combine aesthetic pleasure with spiritual depth, creating examples of integration between idea and artistic expression. The study also discusses the depiction of

inner struggle between the heart and the self, processes of spiritual growth, and the use of dramatic and allegorical devices to convey these states. The work highlights the importance of analyzing arbain poetry based on artistic and aesthetic criteria.

Keywords: Arbain poetry, artistic-aesthetic harmony, spiritual-ethical integration, imagery and metaphor in poetry, coherence of thought and emotion, dramatic effect

Kirish: She'riyat inson ruhiyati va estetik didni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Arba'in mavzusidagi she'riyat esa o'ziga xos badiiy-estetik va ma'naviy-ruhiy uyg'unlik namunalari bilan ajralib turadi. Ushbu maqola Arba'in mavzusidagi she'riyatni adabiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qilish, shoirlarning fikr va his uyg'unligini, tarkib va ifoda muvofiqligini o'rganish maqsadida yozildi.

Maqolada shoirlarning ijodiy mahorati, obraz va metaforalar, ritm va ohang orqali yaratilgan badiiy-estetik ta'sir, shuningdek, qalb va inson ruhiyatidagi ichki kurashlar kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Arba'in mavzusidagi she'riyatning nafaqat ma'rifiy, balki adabiy-estetik jihatdan ham o'rganishga loyiq ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqola o'quvchiga ushbu she'riy asarlar orqali fikr va his uyg'unligini, dramatik va allegorik vositalar yordamida yaratilgan ichki tuyg'ularni his qilish imkonini beradi.

Materiallar va uslublar: Ushbu tadqiqotda Arba'in mavzusidagi she'riyat namunalarini tahlil qilish uchun turli shoirlarning ijodiy asarlari asosiy material sifatida olingan. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Oripov, Mansur Jumayev, Jamol Kamol, Sirajiddin Sayyid, Nodira Afoqova va G'ayrat Majid ijodidagi she'riy to'plamlar tanlandi. Shuningdek, Anvar Hojiahmad, Azam Oktam, Shukur Qurbon va Orif Hoji kabi shoirlarning Arba'in mavzusidagi oddiyroq, an'anaviy uslubdagi she'rlari ham tahlil qamroviga kiritildi.

Tahlil uslubi sifatida adabiy-estetik yondashuv qo'llanildi. Ushbu uslub she'rdagi fikr va his uyg'unligi, tarkib va ifoda muvofiqligi, obraz va metaforalar, ritm va ohang orqali badiiy-estetik ta'sirni aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot jarayonida she'riyatning ma'naviy-ruhiy jihati, dramatik va allegorik vositalar orqali yaratilgan ichki kurashlar ham e'tiborga olindi. Materiallarni o'rganishda sifatli tahlil metodlari, ya'ni matnni tarkibiy, uslubiy va estetik jihatdan chuqur o'rganish, shuningdek, she'riy mazmuni ifodaviy vositalar bilan bog'lash asosiy usul sifatida ishlatildi.

Tadqiqot natijalari: Arba'in matnlarini she'riy tarzda ifoda etish jarayonida asarlarning badiiy-in'ikosiy qimmati ham alohida tahlilni talab etadi. Ayrim manzumalarda mustaqil she'r sifatida adabiy bahoga loyiq darajadagi badiiy kuch mavjud bo'lib, adabiy-estetik jihatdan ham alohida o'rganish obyektlaridir.

Abdulla Oripov va Mansur Jumayev arba'inlarni nazmga solishda badiiy mahorat, obrazli tafakkur va ma'naviy ruhiy teranlikni uyg'unlashtirishda yetakchi o'rinni egallaydilar. Ularning asarlarida ma'rifiy mazmun estetik zavq bilan to'qnashadi, ma'naviy ruh va so'z san'ati o'rtasida mustahkam bog'lanish yuzaga keladi. Bu holat ularning arba'in she'rlarini faqat g'oyaviy emas, balki adabiy jihatdan ham yuksak pog'onaga olib chiqadi.

Shuningdek, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Nodira Afoqova va G'ayrat Majid singari shoirlar ham ushbu yo'nalishda muayyan adabiy mahorati va uslubiy yangiligi bilan ajralib turadi. Ular ma'naviy tarbiyaviy g'oyani estetik jarayonlar bilan bog'lashga intilganlari kuzatiladi. Ushbu mualliflar she'rdagi fikr va hisning birligi, tarkib va ifoda o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali badiiy-ma'naviy integratsiyaning namunalarini yarata olganlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu jarayon hamma mualliflarda bir xil darajada namoyon bo'lavermaydi. Xususan, Anvar Hojiahmad, A'zam O'ktam, Shukur Qurbon va Orif Hoji kabi shoirlar arba'in she'rlarda asosiy e'tiborni asl matn mazmuniga qaratish bilan kifoyalangan bo'lib, badiiy tarkib, obrazlilik va uslubiy tahrir jihatdan nisbatan sodda va an'anaviy yondashuvni namoyon qilganlar. Bu esa estetik ta'sirchanlikning pasayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, arba'in she'rlaridagi estetik zavq va ma'naviy ruhning uyg'unligi masalasi, ayniqsa, ba'zi shoirlar ijodida mukammal shaklda namoyon bo'ladi va bu holat ularning asarlarini faqat ma'rifiy emas, balki adabiy-estetik mezonlar asosida tahlil qilish zarurligini taqozo etadi. Shuning uchun ham nazmiy arba'inlardagi ma'naviy-estetik uyg'unlikni tahlil qilishda faqat asl matn mazmunini emas, balki uning inson qalbida qanday ta'sir uyg'otishini ta'minlovchi badiiy mexanizmlarga e'tibor qaratish zarur.

Xususan, qalb va nafs o'rtasidagi ruhiy kurashni ifoda etuvchi she'rlar ana shunday mexanizmning mukammal namunalaridan biri bo'lib, ular ma'rifiy axloqni falsafiy va tasavvufiy pog'onada yoritishda katta ilmiy va badiiy ahamiyat kasb etadi:

Nafs itiga bo'l hazirkim, yo'llaringda uvlagay,
 Bir og'iz solsa, o'shal dam borlig'ing vayron erur.
 Qay tarafga qochmagil, qolmas izingdin, quvlagay,
 Ki arslondin qutulmoqlik senga oson erur... [1,32]

Tasavvufda komil inson tarbiyasi masalasi falsafiy asos sifatida muhim o'rin tutadi. Bu maqsadga yetishish nafsni jilovlash orqali amalga oshadi. Nafs inson uchun eng xavfli dushman bo'lib, unga bo'ysungan shaxs ma'naviy va jismoniy tanazzulga, halokatga olib keladi. Komillik sari intilayotgan shaxsning haqiqiy muhabbati uni nafs lashkariga qarshi kurashga chorlaydi. Bu yo'lda ishq insonga kuch-quvvat, sabr-bardosh va mustahkam iroda baxsh etadi. Zero, ishq nafs ustidan g'alaba qozonishning eng samarali qurolidir. «Qisasi Rabg'uziy» asarida nafsga qarshi kurashning og'irligi ta'kidlanib, «bir nafsning ishini yetmish shayton ham qilolmaydi», deyiladi.

Keltirilgan she'r nafsning inson hayotidagi xavfli rolini ochib berishga bag'ishlangan. Shu bilan birga, «uvlagay», «quvlagay», «vayron erur» kabi harakatli so'zlar bilan nafsning tinch qo'ymasligi, har qanday holatda insonni izdan chiqarishga intilishi qayd qilingan. She'rda allegoriya va dramatiklik o'zaro uyg'unlikda qo'llangan. Nafsning «it»ga, insonning esa undan qochishga majbur shaxsga qiyoslanishi voqeaning kuchli dramatik ohangini shakllantiradi. Bu o'quvchining nafsga nisbatan hushyor bo'lishga da'vat qilishi bilan bir qatorda, uning hayotiyliigi va realligini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, arslon va it o'rtasidagi qarama-qarshilik o'quvchini o'ylantiradi: nafsdan qochish oson emas, u doimo inson izidan qolmaydi. «Bir og'iz solsa, o'shal dam borlig'ing vayron erur» misrasi nafsga nisbatan hushyorlik va o'z-o'zini nazorat qilishga da'vat qilib, uning ta'siridagi kichik xatoning ham inson hayotini vayron qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu yerda nafsning shiddati, unga qarshi turishning ahamiyati haqidagi hayotiy falsafa yotibdi.

She'rdagi chuqur ma'no hosil qiluvchi so'z va iboralar uning ta'sirchanligini yanada oshiradi: «Nafs iti» – nafsning xayol va tuyg'ularni to'liq vasvasa qilishiga ishora. «Uvlagay» – nafsning xiyonatkor va tinch qo'ymas xususiyati. «Arslondin qutulmoqlik» – nafsni yengishning og'irligi, lekin mumkinligi haqidagi umid.

Nafs va qalb o'rtasidagi kurash inson ruhiyatidagi eng muhim maydondir. Nafsga qarshi olib boriladigan uzluksiz mujodala insonni halokatdan qutqarsa, qalbdagi joylashgan iymon esa

uni ma'naviy yuksalish sari yetaklaydi. Zero, nafs yovuzlikka chorlasa, iymon yaxshilikka undaydi; nafs odamni o'z izidan quvlab, arslon misoli xavf solsa, iymon qalbgga xotirjamlik va nur olib kiradi. Shu bois ham, ma'naviy kamolot sari intilgan inson nafsga qarshi kurashda iymonni qalbiga mahkam joylashtirmog'i lozim. Chunki iymon bor joyda iroda bor, ibrat bor, nur bor va ehson fazilati bor:

Dildagi narsalarning eng yaxshisi iymondir,
Boshqadan ibrat olgan eng baxtiyor insondir,
Qissalarning yaxshisi Qur'ondagisi, albat,
Beruvchi qo'llar, albat, olur qo'ldin shoyondir. [2, 79]

Ushbu she'r falsafiy-axloqiy mazmun bilan sug'orilgan teran ma'noli to'rtlik bo'lib, u nafaqat badiiyat me'yorlari, balki qadriyatlar me'yorida ham baland pog'onada turibdi. Shoir unda insonning qalb hayotidan tortib, ijtimoiy faolligigacha bo'lgan keng ma'nolarni sidqidildan va ixcham satrlarda bayon etgan. She'r faqat hissiyot ifodasi emas, balki fikr, ibrat va hayotiy xulosalar asosiga qurilgan axloqiy-falsafiy manifest sifatida ko'riladi.

«Dildagi narsalarning eng yaxshisi iymondir» satri – inson tabiatining mehvari sanalmish qalbnii markaz qilib, u yerdagi barcha tuyg'u va holatlar ichida eng yuksagi iymon ekanini ta'kidlaydi. Bu satrda qalbnii «makon», iymonni esa «e'zozli mehmon» deb talqin qilish mumkin. «Dildagi narsalar» – tuyg'ular, niyatlar, maqsadlar, g'oyalar, muhabbat va boshqalarni qamrab oladi. Ular ichida iymon – boshliq, eng ravshan, eng toza va eng yuksak maqomda turibdi.

Ikkinchi satr – “Boshqadan ibrat olgan eng baxtiyor insondir” – inson baxtga nima orqali erishishi mumkinligi haqida so'z boradi. Bu yerda baxt moddiy ne'matlar bilan emas, tafakkur va ma'rifat bilan o'lchanmoqda. Boshqalar hayotidan, voqealardan, tarixdan ibrat olish insonning aqliy kamoloti va ruhiy ulg'ayishining mezoni sifatida ko'rsatilmoqda. Bu qarash an'anaviy islomiy axloq ta'limotida ham bor. Demak, shoir falsafiy jihatdan baxtni anglash, irodani tarbiyalash va saboq chiqarishga bog'laydi.

She'rni badiiy va mafkuraviy jihatdan ma'rifat, axloqiy tarbiya va falsafiy dunyoqarashni qisqa, lekin yuksak uslubda ifoda etgan. Har bir satr ma'lum bir mafkuraviy nuqtani qamrab oladi: iymon – shaxsiy ruhiyat, ibrat – hayotiy idrok, Qur'on – ilohiy manba, ehson – ijtimoiy fazilat. She'r uslubi jihatidan ham foydalanilgan so'zlar tanlovi, ritm, vazn va ta'sir kuchiga ega bo'lgan rivojlanuvchi tartibda qurilgan. Bu uning ichki kompozitsiyasi mustahkamligini ko'rsatadi. Tartib: qalb (iymon) → idrok (ibrat) → manba (Kitob) → faollik (berish) kabi bosqichma-bosqich ma'naviy o'sish jarayonini ifoda etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Камол, Жамол. Шеър санъати. Сайланма. Олти жилдлик. Тўрт жилд. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Ҳожиаҳмад, Анвар. Жаннат калити: Муҳаммад алайҳиссаломнинг 33 масаладаги 333 ҳадисларига 333 шеърый иқтибос. – Тошкент: Чўлпон, 1994.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.